TALABALAR AQLIY TARAQQIYOTIGA PSIXOLOGIK TRENINGLARNING RIVOJLANTIRUVCHI TA'SIRINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI

Abdinazarova Zamira Xudaybergenovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Pedagogika, psixologiya va boshlang'ich ta'lim" kafedrasi dotsenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.16753100

ANNOTATSIYA

Maqolada psixologik treninglarning talabalar aqliy taraqqiyotiga rivojlantiruvchi ta'sirining psixologik-pedagogik jihatlari yortib berilgan.

KALIT SO'ZLAR

Pedagogik texnologiya, psixologik trening, motivatsiya, ta'lim mazmuni, psixologik muammo, bilim, malaka, ko'nikma, an'anaviy ta'lim.

АННОТАЦИЯ

В статье раскрыты психолого-педагогические аспекты развивающего воздействия психологической тренингов подготовки на психическое развитие студентов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Педагогическая технология, психологическая тренинг, мотивация, содержание образования, психологическая проблема, знания, компетентность, умение, традиционное образование.

ABSTRACT

The article examines the influence of pedagogical technologies on students' thinking as a psychological problem, as well as psychologically contradictory aspects of traditional education.

KEYWORDS

Pedagogical technology, psychological training, motivation, educational content, psychological problem, knowledge, competence, skill, traditional education

Kirish. (Introduction) "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir. Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu –ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir.

Ertangi kunimiz, vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq" — Shavkat Mirziyoyev.[1]

Ushbu fikrdan ko‘rinib turibdiki, respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning yaratuvchisi timsolida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi, kasb-hunar malakalarini egallashi asosiy masalalardan biri tariqasida ta’lim jarayonida namoyon bo‘lmoqda.

Ta’limning samaradorligini amalga oshirishda yuqori ko‘rsatkichli vositalardan biri – bu pedagogik texnologiyalar ekanligi sir emas, albatta ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyotining kirib kelishi - bu zamon (davr) talabidir. Inson psixologiyasi o‘ta ta’sirchan, tashqi ta’sirlarga beriluvchan, o‘zining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlariga ega bo‘lgan o‘ta murakkab tizim hisoblanadi. Bu holatni inobatga olgan holda shuni ta’kidlash mumkinki, talabalarning psixik tizimiga shakllantiruvchi, ya’ni ma’lum sifat va yosh xususiyatini rivojlantiruvchi psixologik ta’sir ko‘rsatish imkoniyati mavjud. Talabalar psixik tizimining markaziy tushunchalaridan biri ularning aqliy salohiyati hisoblanadi. Talabalar aqliy salohiyatini oshirish masalasi ularning qaysi soha yo‘nalishida o‘qishlaridan qat’iy nazar eng muhim masalalardan biridir. Ta’kidlash joizki, talabalar aqliy salohiyatini rivojlantirishda psixologik treninglardan foydalanish ilmiy ishning amaliy qadr-qimmatini oshirib yuboradi.

Tadqiqotning maqsadi. Yuqoridagi holatlar inobatga olingan holda talabalar aqliy taraqqiyotini jadallashtirish maqsadida, ayniqsa, bunday jadallashtirishda pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda maxsus psixologik-pedagogik trening dasturi ilmiy ishimizning maqsadi deb belgilandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Aqliy taraqqiyot talabalik yosh davrida o‘ziga xos holda sodir bo‘ladi. aniqli psixolog, Leningrad psixologiya maktabining asoschisi B.G.Ananev bu yosh davrini intellektning murakkab tuzilma kasb etish davri, deb baholaydi. Ko‘plab tadqiqotchilar inson taraqqiyotining bu davrini quyidagi sifatlar bilan sifatlaydi: funksional ish qobiliyatining va mahsuldorligining to‘xtovsiz o‘sishi; qandaydir ziddiyatlarsiz progressiv harakat dinamikasining kuzatilishi; ta’limda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan senzitiv davrning mavjudligi; ma’lum psixik funksiyalarning keskin rivojlanishi hisobiga boshqa birlarining stabillashuvi yoki pasayishi va hokazo.

B.G.Ananev ko‘rsatmalariga ko‘ra, 18–21 yoshlarda turli xil funksiyalarning (xotira, tafakkur, idrok, diqqat) korreksion pleyadasi zanjirsimon bog‘lanishlarga

[1] Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: “O‘zbekiston” NMIU. 2018 y. –592 b.

ega bo‘lsa, 22–25 yoshga kelib bu bog‘lanishlarning murakkab shaxoblangan kompleksi paydo bo‘ladi va bu kompleks asosan ikkita markaz atrofida guruhlashadi–mnemologik (xotiraning yaxlit strukturasi–tafakkur) va attension (diqqat omili). Bu yosh davrida tafakkur bilan xotiraning rivojlanishi yaqin va to‘g‘ridan–to‘g‘ri bo‘lmagan aloqada bo‘ladi. 18–19 yoshda fikriy jarayonlar taraqqiyotining nisbatan turg‘unlashuvi kuzatiladi. 19–24 yoshlarga kelib xotira funksiyalari mantiqiy funksiyalar rivojidan ilgarilab ketadi. Biroq 20, 23, 25 yoshlarda aksincha holat kuzatiladi, ya’ni mantiqiy tafakkur xotiraga nisbatan yuksakroq darajada rivojlanadi. 22 va 26 yoshlarda ikkala funksiyalarda ham susayish kuzatiladi. 30–35 yoshlarda intellekt strukturasida endi uchta yadroning shakllanishi kuzatiladi: mnemologik (xotira), attension (diqqat) va mantiqiy (tafakkur). Attension yadroning mavjudligi shuni ko‘rsatadiki, insonning diqqatini belgilaydigan ongning yo‘nalganligi va to‘planganligi uning intellektual faoliyatining muhim sharti hisoblanadi. 34 – 35 yoshlardan kattaroq yoshlarda tag‘in ikkita yadro saqlanib qoladi, ya’ni mantiqiy va attension yadrolar atrofida qolgan barcha funksiyalar joylashadi.

Shu o‘rinda L.S.Vigotskiyning oliy psixik jarayonlar taraqqiyoti nazariyasini aqliy taraqqiyotga taalluqli bo‘lgan fikrlarini batafsilroq ko‘rib chiqishga harakat qilamiz. Uning shu ma’nodagi ilgari surgan fikrlari pedagogik psixologiya fani uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimning fikricha, aqliy taraqqiyot ikki darajalilik qoidasiga amal qiladi:

1. Aktual taraqqiyot darajasi (talaba mustaqil holda yechishi mumkin bo‘lgan masalalar yordamida aniqlanadigan aqliy taraqqiyotning darajasi bilan xarakterlanadigan tayyorgarlikning mavjud darajasi);

2. Uning yaqin taraqqiyot zonasini aniqlaydigan daraja (bu daraja bolaning kattalar bilan hamkorlik faoliyati davomida amalga oshirilib, intellektual rivojlanish doirasida masalalarni yechish bilan amalga oshiriladi).

Keyinchalik L.S.Vigotskiyning g‘oyalari asosidata’lim mazmuning roli “ilgari ketuvchi” ya’ni rivojlanishdan ilgarilab ketuvchi ta’lim tamoyili ishlab chiqildi. Mazkur tamoyilga ko‘ra, ta’limni samarali tashkil etish shart–sharoitlari sifatida ta’lim oluvchining faolligi aqliy faoliyatni rivojlantirish, o‘zga ta’lim oluvchilar bilan hamkorlikda mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantirish qaraladi. Bir so‘z bilan aytganda, aqliy taraqqiyotning muhim sharti sifatida o‘zini-o‘zi rivojlantirish nazarga olingan. Mazkur ta’lim tamoyilining ijodkorlaridan biri L.V.Zankovning ta’kidlashicha, o‘quv materialining nisbatan sekin o‘zlashtirilishi o‘sha material bilan talabaning mustaqil ishlamasligidan, balki tayyor materialni o‘zlashtirishga majburligidan kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, talaba uchun

o‘quv materiali ta’lim beruvchining axborotiga emas, balki ta’lim oluvchining axborotiga aylanishi zarur.

Demak, ta’limdagi o‘zgarishlar o‘quv materialini mazmunan chuqurlashtirib o‘rganish, nazariy tahlil, umumlashtirish, talabaning nazariy tafakkurini rivojlantirish yo‘nalishida bo‘lmog‘i zarur.

Shunday qilib, aqliy taraqqiyotning o‘ziga xos psixologik tomonlari va uning ta’lim bilan aloqasi aqliy taraqqiyotning mezonlari bilan bevosita aloqasi bor. Sababi bu masala aqliy taraqqiyotni qanday qilib aniqlashimiz, qanday belgilarga qarab belgilashimiz bilan bog‘liq bo‘lgan masala hisoblanadi. Psixologiya fanida aqliy, intellektual taraqqiyotning mezonlari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi: tafakkurning mustaqilligi, o‘quv materialini o‘zlashtirishning tezligi va mustahkamligi, nostandart masalalarni yechishda tezlik bilan mo‘ljalni olish, muhimni nomuhimdan ajrata bilish, analitiko–sintetik faoliyatning turli xil darajasi, aqlning tanqidiyligi (N.D.Levitov, N.A.Menchinskaya), shuningdek, umumlashtirishni shakllantirish tezligi, tafakkurning iqtisod qilinganligi (E.I.Kalmikova, V.A.Kruteskiy).

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytganda, inson aqliy taraqqiyotining asosiy mezoni – turli xil tipdagi masalalarni mustaqil, ijodiy yechish ko‘nikmasi hisoblanadi.

Taniqli psixolog olim B.G.Ananev olib borgan tadqiqotlar natijasi o‘laroq intellektning strukturasi, aqliy taraqqiyotning o‘zgarishlari haqidagi ma’lumotlar dunyoga keldi. Ma’lumki, intellektning strukturasi yosh davrlarining barchasida dinamik holda o‘zgarishlarga uchraydi. Bunday o‘zgarishlar shu jumladan talabalik yoshida ham kuzatiladi. Shu o‘zgarishlar asosan mantiqiy tafakkurda, verbal tafakkurda, tushunchali tafakkurda kuzatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ma’lumki, trening - “ta’sir” degan ma’noni anglatadi va psixologiya fanida obyektning subyektdagi ma’lum sifat yoki xususiyatlarga ta’siri nazarda tutiladi. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda psixologik trening termini psixologiya amaliyotida qo‘llanilayapti.

Shu o‘rinda fikrimizni aniq tushunish uchun bir muhim masalani oydinlashtirib olishimiz zarur. Bu ham bo‘lsa – “pedagogik texnologiyalar” va “psixologik trening” tushunchalari o‘rtasidagi o‘xshash va farq qiluvchi tomonlarini sharhlash zaruratidir. “Pedagogik texnologiya – oldindan rejalashtirilgan o‘quv-tarbiyaviy jarayonning amaliyotga uzluksiz singdirilishi” deb sharhlanadi. Ma’lum ma’noda pedagogik texnologiya ham ta’sir hisoblanadi. Faqat bunda ta’lim oluvchining qiziqishlari va motivatsiyasi inobatga olinadi. Ularning tarkibiga tezlashgan ta’lim metodikalari, guruhiy ta’lim metodikalari, ta’lim beruvchi o‘yinlar va hokazolar kiradi. Pedagogik texnologiyalar ta’lim usullari yordamida ta’lim

mazmuni ta’sirini oshirish, ta’lim samaradorligini yuksaltirish singari holatlar bilan bog‘liq. Psixologik treninglar esa ta’sir o‘tkazilayotgan kishining (talabalarning) ma’lum psixologik sifatlariga ma’lum psixologik ta’sir usullari yordamida ta’sir ko‘rsatishdir. E’tibor berilsa, ulardagi mushtarak tomonlar shundaki, ikkala holda ham ta’sir nazarda tutilayapti. Ta’sir natijasida hosil bo‘ladigan holatlarda ham, mexanizmlarda ham (ikkala holda ham asosiy ta’sir motivatsiya orqali amalga oshiriladi) o‘xshashlik ko‘zga tashlanadi. Biroq farqi shundaki, pedagogik texnologiyalar ta’lim tuzilishiga, uning jarayoniga ma’lum o‘zgarishlar kiritish orqali ta’sir ko‘rsatish bo‘lsa, psixologik treninglar psixik jarayonlarga, holatlarga, xususiyatlarga va tuzilmalarga ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik trening – bu shaxslararo hamkorlik jarayonida modellashtirilgan hayotiy tajribani o‘zlashtirish va anglab yetishga asoslangan faol o‘qitish usulidir. Trening (inglizcha treining so‘zidan olingan bo‘lib, mashq qilmoq degan ma’noni anglatadi) guruh a’zolari o‘rtasida ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan muloqotning bir turi bo‘lib, bu muloqot natijasi o‘laroq guruh a’zolarining psixik tomonlaridan biri shakllantiriladi, rivojlantiriladi. Bunda psixologik ta’sirning faol usullaridan, ya’ni guruhlararo munozara, bahslar, rolli o‘yinlar va hokazolardan foydalaniladi.

Agar bu ta’rifni sharhlaydigan bo‘lsak, birinchi navbatda shaxslararo hamkorlikdir.

Shunday qilib, “psixologik trening deganda guruhiy ishning faol metodlariga asoslangan psixologik ta’sir amaliyotidir”. Bunda bilimlarni uzatishning maxsus shakllari qo‘llaniladi, muomala, faoliyat, shaxs va tuzatish sohasida ko‘nikmalar va malakalarga o‘rgatiladi.

Lyudmila Ann o‘zining “Psixologicheskiy trening s podrostkami” kitobida psixologik trening haqida yana shunday deb yozadi: “Trening – bu shaxsning o‘zini o‘zi takomillashtirishi uchun maxsus tashkil etilgan ta’lim shakli bo‘lib, uning natijasida quyidagi vazifalar hal tiladi:

ijtimoiy-psixologik bilimlarni egallash;

o‘zini va o‘zgalarni bilish qobiliyatini rivojlantirish;

shaxsiy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlarini oshirish; “Men” – konsepsiyasini shakllantirish.[2]

Trening o‘tkazishda psixologning xatti-harakatlari, xulq-atvori muhim rol o‘ynaydi. Bunda psixologning nazariy yo‘nalganligi alohida zarur shart hisoblanadi. Shuning uchun trener-psixologning shaxsi muhim omil hisoblanib, buni inobatga olmasdan trening mashg‘ulotlarini boshlab bo‘lmaydi. Psixologning malakasi, tajribasi, qadriyatlar tizimi, shaxsiy sifatlari va hokazolar, tabiiyki, barcha

[2] Анн Л.Ф. Психологический тренинг с подростками. – СПб.:Питер-Пресс, 2008.- 272 с.

masalalarga, ya’ni treningning tashkil qilinishidan tortib, o‘tkazilishigacha, natijalarning olinishidan tortib to psixologik tahlil qilinishigacha o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Trening guruhlarida rivojlantiruvchi va optimallashtiruvchi ta’sir o‘z o‘zidan ma’lumki faqatgina trening ishtirokchilari o‘rtasida empatiya, samimiyat va ijobiy psixologik muhit yaratilgan taqdirdagina kuzatilishi mumkin.

Psixologning rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatuvchi tajriba eksperiment o‘tkazish vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1. Talabalarda munosabatlarni, xulq-atvor ustanovkalarini, emotsional-hissiy holatlarini yuzaga chiqarish va natijalarni ular bilan muhokama qilish.

2. Trening guruhida uning har bir a’zosining to‘liq ochilishini ta’minlash, xavfsizlik, o‘z his-tuyg‘ularini yashirmaslik, himoyalanish va qo‘llab-qo‘ltiqlanish muhitini yaratish.

3. Trening guruhida ma’lum psixologik normalarni ishlab chiqish va ma’lum psixologik texnik vositalardan unumli foydalanish imkoniyatini yaratish.

Ma’lumki, trener-psixolog tomonidan foydalaniladigan talabalarga ta’sir qilish vositalari ikki turga bo‘linadi: verbal va noverbal vositalar. Biz quyida ularga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Chunki ularni bilmasdan guruhiy trening o‘tkazib bo‘lmaydi.

1. Verbal ta’sir vositalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) mashg‘ulot jarayonini tuzish, ya’ni mazkur jarayonning tuzilmasini har bir detalini hisobga olgan holda, hatto psixolog bildirishi kerak bo‘ladigan fikrgacha oldindan ishlab chiqish yoki psixologik pedagogik dastur tuzish;

b) ma’lumotlar yig‘ish, ya’ni tadqiqotning farazini isbotlaydigan (yoki, aksincha, inkor etadigan) ma’lumotlarni olish uchun ma’lum axloqiy va tashkiliy talablarni qondirish;

d) interpretatsiya, ya’ni qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni psixologik tahlildan o‘tkazish va sodir bo‘lgan psixologik hodisaning sabab hamda motivlarini aniqlash;

g) ishontirish va qayta ishontirish, ya’ni talabalarni tadqiqot natijasi o‘laroq ularda aqliy taraqqiyotda ma’lum jonlanish, takomillashishning kuzatilishiga ishontirish (agar ishonchi yo‘qolgudek bo‘lsa, ularni qaytadan ishontirishga harakat qilish);

e) ma’lumotlar berish, ya’ni o‘tkaziladigan psixologik trening shart-sharoitlari bilan til qoidalarini saqlagan va axloqiy normalarga amal qilgan holda talabalarni tanishtirish;

f) topshiriqlarni yetkazish, ya’ni psixolog talaba bajarishi talab qilinadigan topshiriqlarni aniq va puxta yetkazish, yoki ularning aniq va puxta yetkazilishi trening natijasiga bevosita ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi.

2. Noverbal ta’sir vositalariga esa quyidagilar kiradi: mimika (yuz qiyofasi), jestikulyatsiya (imo-ishoralar), intonatsiya (tovush ohangi) va pantomimika (harakatlar). Psixolog-trener yuqorida zikr qilingan noverbal ta’sir vositalaridan unumli, samarali va bilib foydalanishi zarur.

Shuningdek, u trening guruhini, uning uyushganligini yoki asabiylashganligini doimiy holda nazoratda ushlab turishi zarur.

Biz yuqorida psixologik trening yordamida pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish yoki aksincha pedagogik texnologiyalar yordamida psixologik treninglar o‘tkazishning umumiy qonun-qoidalari, talab va shart-sharoitlari to‘g‘risida ma’lum fikrlarimizni ilgari surdik. Endi esa pedagogik texnologiyalarning talabalar aqliy taraqqiyotini rivojlantirishiga mo‘ljallangan psixologik-pedagogik trening dasturidan 2 ta mashg‘ulotni batafsil ko‘rib chiqishga o‘tamiz.

1 – mashg‘ulot - trening

Ushbu mashq-mashg‘ulot talabalarning aqliy taraqqiyotini shakllanishida “Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” va “Klaster” metodlarining ahamiyatiga bag‘ishlanadi. Bunda talabalarga ta’limning zamonaviy texnologiyalarining mohiyati haqida tushuncha beriladi.

“Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” metodini o‘tkazish tartibi va amalga oshirish bosqichlari bilan tanishtiriladi.

Guruhlarning faoliyatlari quyidagi ko‘rinishda tashkil etiladi.

1) har bir guruh umumiy sxema asosida o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg‘ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyihalari bandlari bo‘yicha umumlashtiriladi:

2) guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo‘yicha o‘qituvchi tamonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi.

“Klaster ” (g‘uncha, bog‘lam) metodi talabalarning erkin fikrlash doirasini kengaytirish orqali bilim saviyasini aniqlash uchun qulay keladi. Strategiyani o‘tkazish qoidalari bilan tanishtiriladi. Metod talabalar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladi. Ilgari surilgan g‘oyalar umumlashtiriladi va yakunlanadi.

Bu mashg‘ulot talabalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishda modulli ta’limning pedagogik psixologik xususiyatlari to‘g‘risida bo‘lib, talabalarga

“Modulli ta’lim texnalogiyalarining mohiyati va pedagogik psixologik xususiyalari o‘rgatiladi. Unda quyidagi modullar ko‘rib chiqilgan.

2 – mashg‘ulot - trening

1-modul. Shaxs va jamiyat taraqiyoti uyg‘unligini asoslab bering

2-modul. Talabalarning amaliy faoliyatda yangi pedagogik texnologiyalarning afzalligini qiyosiy jihatdan tahlil qilishga yo‘naltirish va egallagan bilim, malaka, ko‘nikmalarni baholash.

3–modul. Talabalar o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda ta’lim texnologiyalarining mohiyati.

4-modul. Hamkorlikda o‘qitish va evristik suhbatlar asosida talabalarni demokratik fikrlashga yo‘naltirish omillari.

5-modul. Modulni yakunlash va natijalar bo‘yicha xulosalar chiqarish.

Xulosa va takliflar (Conclusion Recommendations). Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, trener-psixologdan, bir tomondan, guruhdagi har bir talabaga alohida individual yondashishi, unga emotsional-hissiy jihatdan yaqin bo‘lishga intilishi talab qilinsa, ikkinchi tomondan, guruhiy va individual talablarni esdan chiqarmasdan, har bir talabaga joriy etish so‘raladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, pedagogik texnologiyalar yordamida psixologik trening o‘tkazish talabalarda ikki xil effektning paydo bo‘lishiga olib keladi: birinchidan, treningdan ko‘zga tutilgan aqliy taraqqiyotni jadallashtirish effekti bo‘lsa, ikkinchi tomondan, umuman psixologik treninglarda ishtirok etish malakasining oshishi effekti. Ularning ikkalasi ham ijobiy xarakterga ega bo‘lib, oxir-oqibat talabaning shaxsiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Trening mashg‘ulotlarini o‘tkazishda qo‘yidagilarga e’tibor berilsa maqsadga muvofiq bo‘lagdi:

1. Trening o‘tkaziladigan guruhning uyushganligini yoki asabiylashganligini doimiy holda nazoratda ushlab turish.

2. Talabalarning o‘qishga nisbatan qiziqishlarini oshirish, uquv motivatsiyani uyg‘otish uchun ularga pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta’limni takomillashtirish, pedagogik texnologiyalarning strukturasi va strategiyasini o‘rganish.

3. Pedagogik texnologiyalarning talabalar aqliy taraqqiyotiga psixologik ta’sirini o‘rganishda shaxsga oid treninglar asosida ishlab chiqilgan guruhiy treningdan foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: “O‘zbekiston” NMIU. 2018 y. –592 b.

2. Анн Л.Ф. Психологический тренинг с подростками. –СПб.:Питер-Пресс, 2008.-272 с
3. Унт И.Э. Индивидуализация и дифференциация обучения. – М., 1990.
4. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: ИРПО, 1995.-212 с.
5. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Moliya, 2003.- 192 b.
6. Абдиназарова З.Х “Роль игравой технологии в педагогическом процессе”, Физика ва технология таълими электрон журнали феврал сон №2 Жиззах - 2025.
7. Abdinazarova. Z.Kh The study of the impact of pedagogical technologies on students' thinking as a psychological problem. Science and innovation international scientific journal volume 4 issue 2 february 2025.